

RIVOJLANISH DAVRIDA ONG TARAQQIYOTI VA ONGSIZLIK

Teshaboyeva Inobathon Qahramonovna
Andijon davlat pedagogika insituti
Texnologik ta’limi sirtqi I-bosqich talabasi

Annotatsiy: Ushbu maqola psixologiya va pedagogikada ilk ong tushunchasini keng tadbiq qilgan holda ,bu tushuncha bilim ,ko‘nikmaga ega bo‘lish ,hamda insoniyat ongida paydo bo‘ladiga yangidan –yangi tushunchalar hamda ular keltirib chqaradigan asosiy voqealar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy mahsul,ong ostidagi hodisalar,gallyusinatsiya,til amaliy – haqiqiy ongidir.

Psixika voqelikning kishi miyasida aksi sifatida har xil darajalar bilan farqlanadi. Psixikaning odamga xos bo‘lgan oliy darajasi ongni tashkil etadi. Ong psixikaning uni yaxlit bir holga keltiruvchi shakli bo‘lib kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan til yordamida muloqot qilish jarayonida shakllanishini ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlari natijasi hisoblanadi. Ongning strukturasi tuzilishi, uning muhim psixologik ta’rifi qanday? Uning birinchi ta’rifi-nomining o‘zidayoq berilgan bo‘lib, ong deganidir. Ong psixik jarayonning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Uning asosiy xususiyatlari bu harakat va shiddatdir. U refleksik va turki bo‘luvchi xususiyatga ega. “Men-mohiyat”. Inson ongi va miya rivojlanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik bo‘ladi. Kishining ongi bizning tevarak atrofimizni qurshab turgan olam haqidagi bilimlar majmuasidan tarkib topdi. K.Marks. «Ongning yashash usuli va ong uchun nimaningdir borligi bilimdir». deb yozgan edi. Ongning strukturasi muhim bilish jarayonlari kiradi. Ular yordamida odam o‘z bilimlarini doimo boyitib boradi. Bu jarayonlar qatoriga sezgilar va idrokni, xotirani, xayol va tafakkurni qo‘shish mumkin. Sezgilar va idrok yordamida miyaga ta’sir etuvchi kuzatuvchilarning bevosita aks etishi natijasida ongda borliqning o‘sha momentda kishi tasavvurida hosil bo‘lgan hissiy manzarasi gavdalanadi. Xotira ongda o‘tmish obrazlarini qaytadan gavdalandiradi. Xayol ehtiyoj ob’ekti bo‘lgan ammo hozirgi paytda yo‘q narsaning obrazli modelini hosil qiladi. Tafakkur umumlashgan bilimlardan fodalangan yo‘li bilan masalaning hal etilishini ta’minlaydi. Aytib o‘tilgan psixik bilish jarayonidan istalgan birining batamom barbod bo‘lishiga olib keladi. Ongning ikkinchi ta’rifi unda sub’ekt bilan ob’ekt o‘rtasida aniq farqlanishni o‘ziga ifodasini topishi, ya’ni odam «men» degan tushunchaga nima tegishli ekanini aniq biladi. Odam o‘z hatti-harakatlarini va umuman o‘zini-o‘zi ongli ravishda baholaydi. «Men»ning «men emas» degan ajratish har bir kishi kishi bolaligida boshdan kechiradigan yo‘l bo‘lib, uni o‘zidan o‘zi anglashi jarayonida yuz beradi. Ongning uchinchi ta’rifi-odamning maqsadini ko‘zlovchi faoliyatini ta’minlashdir. Faoliyatning maqsadlarini yaratish ongning funksiyasiga kiradi. Bunda faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamalab chiqiladi. Irodaviy qarorlar qabul qilinadi. Harakatlarni bajarishning qanday borishi hisobga olinadi. Unga tegishli tuzatishlar kiritiladi va hakazo. K.Marks «kishi tomonidan berilgan narsaning formasini o‘zgartirish bilangina cheklanmaydi, tabiat tomonidan berilgan narsalar bilan birga o‘zining ongli maqsadini ham amalga oshiradi. Bu maqsad qonun sifatida kishining ish usulini va bu ishning harakterini belgilab beradi va kishi o‘z irodasini ana hu maqsadga bo‘ysundirish lozim» deb ta’kidlagan edi.

Maqsadni ko‘zlovchi faoliyatni amalga oshirishda va yo‘nalishida kasallik oqibatida yoki biron-bir boshqa sabablarga ko‘ra har qanday buzilishning yuz berishini ongning buzilgani deb qaramoq kerak.

Ongning to‘rtinchi ta’rifi-uning tarkibiga muayyan munosabatning kirganligidir. «Mening o‘z muhitimga bo‘lgan munosabatim mening ongidir» deb yozgan K.Marks.

Shu o’rinda chet el adibi Djon Keho ning ijtimoiy tarmoqlarda quydagi so’zlarni aytdi: Biz gaprayotgan har bir so’zlarimiz ma’lum bir tasavvurlar paydo qiladi bu xolatni biz o’z foydamizga ishlatishimiz mumkin. Shu sababsiz ong ortingizni sizga ishlashini sozlang va hayotingizni yorqinlashtiring. Biz ishlatadigan so’zlarimiz hayotimizga katta tasirini o’tkazadi farqi yo’q u hayolan mi yoki og’zakimi, bir narsani esda saqlab qolishingizni istardim ,siz nima xaqida gapirsangiz o’sha haqida o’ylaysiz va o’ylaganingizni yodingizga tortasiz va ya’na siz gapirishdan avval tasavvur qilasiz.Men hozir sizga bir narsani tez –tez qaytaraman oq fil, oq fil, oq fil ,oq fil,oq fil hayolingizga qanday obraz keldi oq fil keldi aaa ko’ryapsizmi biz gapirayotgan hamma gaplar hayolimizda shakillanadi. Biz bu holatdan hayotimizda zo’r foydalanishimiz mumkin. Endi ikkinchi qism siz nimani o’ylasangiz o’shani hayotingizga tortasiz.endi eng qizig’ini o’qing ishonaman bu sizga yoqadi .har qanday holatni obrazni hayolingizda o’ylab yursangiz o’sha holatni ong ortingizga tomir otib tasavvur qilsangiz hayotingizga ko’cha boshlaydi u, shu sababdan bizning hayollarimiz biz o’ylagandandakuchliroq aslida,bizning gaplarimiz hatto sog’ligimizga ham tasir ko’rsatadi hatto,shunday odamlarni eshitgansiz “e xudoyim, girpp mavsumi kelmoqda men bu yil ham doimgidek gripp bo’laman” deyishadi va bunday fikrdan keyin u odam albatta kasal bo’ladi. Axir bu tentaklikku, kasallikni o’zingizga tortib nima qilasiz, nega kasalangan holatingizni oldindan ong ostingizga joylab ,kasallikni chaqirasiz. Tajribalar shuni ko’rsatdiki, ko’p odamlar ijobiy fikrlashlari oqibatida hayoti go’zallashib, muvofaqqiyatlarga to’la boshlaydi. Men quyidagi gaplarni doim takrorlayman mening tanam juda g’aroyib, u qayta tiklanish imkoniyatiga ega. O’zingiz o’ylang, ovqatlanayotganingizda organizm foydali vitamin va elementlarni o’zi ajratib oladi, tanangizning kerakli joylariga taqsimlaydi, kerakmaslarini chiqarib yuboradi va bu avtomatik tarzda bo’lmoqda, qo’lingizni kesib olsangiz qon tomir kletkachalar infeksiya tushishini oldini olib, terini yopa boshlaydi va qon to’xtaydi, ularga buyruq berishingiz shart emas.Agar qo’lingiz sinsa mening qo’lim tuzalmoqda va tezroq tuzalmoqda deb takrorlashingiz kerak. Ongimiz va tanamiz bir –biriga mutanosib ishlashi uchun moslashtirilgan, shu sababdan ong ortingizni ,hayollaringizni o’zingiz foydangizga ishlatishga yonaltiring va hayotingizni yorqinlashtirib maqsadlarga erishing unutmang ;

Ongsizlik-kishini o’zini tuta olmaydigan qilib qo’yadigan taaassurotlar bilan bog’liq psixik jarayonlar harakatlar va holatlar yig’indisidir. Psixik holat sifatida ongsizlik voqelikni aks ettirishning shunday bir shakli hisoblanadiki ,bunda harakat o’rni va vaqtini mo’ljal qilish, yaxlitligi yo’qoladi, hatti-harakatining nutq yordamida boshqarilshi buziladi. Ongsizlikka quyidagi psixik holatlarni kiritish mumkin: Uyqu paytida yuz beradigan psixik hodisalar (tush ko’rish) sezilmaydigan lekin haqiqatda ham ta’sir ko’rsatadigan kuzatuvchilarga javob reaksiyalari: oldinlari ong harakat bo’lib, lekin takrorlanaverib avtomatlashib ketgan va shunga ko’ra endilikda anglanmaydigan bo’lib qolgan harakatlar faoliyatiga undovchi ammo maqsad hissidan anglanmaydigan ayrim moyillar, ongsizlik hodisalariga bemor kishining psixikasida ro’y beradigan ba’zi bir protologik hodisalarini-alahlash, ko’ziga yo’q narsalarning ko’rinishi kabilarni ham ko’rish mumkin. shularga, asoslanib ongsizlikning ongga qarama-qarshi deb hisoblash, uni hayvonlar psixikasiga tenglashtirish noto’g’ri bo’lar edi.

Ongsizlik-bu kishining xuddi ong kabi o’ziga xos psixik qiyofasidirki, u kishi miyasida borliqning etarli darajada bir xil bo’lmagan qismiga aksi tarzida inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog’liq holda bo’lgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Petrovskiy “Umumiy psixologiya” 1990-yil.
2. Tolibdjanovna, A. Z. (2023). Psychological Factors of Manifestation of Aggressive Behavior in Teenagers during Globalization.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

3. Tolibdjanovna, A. Z. (2024). Social and psychological factors in the formation of psychological culture of students. *Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 428-431.

4. Tolibdjanovna, A. Z. (2024). Social and psychological factors in the formation of psychological culture of students. *Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 428-431.

5. Khosilbekovna, S. F. (2024). Ethnopsychological Predictors of the Process of Acculturation in Migrant Students. *International Journal of Formal Education*, 3(2), 199-203.

6. Xosilbekovna, S. F. (2024). The impact of globalization on the manifestation of aggressive behavior in adolescence. *Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 134-137.